

1. Qaysi o'zbek geografi O'rta Osiyolik allomalarining geografik merosini chuqur tahlil qilib bir qancha asarlar yozgan?

- A) M. Qoriyev
- B) H. Hasanov
- C) N. Dolimov
- D) H. Abdullayev

2. Qaysi andaza yordamida tuzilgan xaritalarda yo'naliishlarni aniqlash qulay, biroq maydonlar va masofalarni tasvirlashda xatoliklarga yo'l qo'yiladi?

- A) teng burchakli
- B) ixtiyoriy
- C) teng maydonli
- D) konussimon

3. Qaysi iqlim mintaqasida yoz issiq va seryomg'ir, qish esa iliq va quruq bo'ladi?

- A) subtropik
- B) ekvatorial
- C) subekvatorial
- D) tropik

4. Matnni o'qing.

"Subtropik iqlim mintaqasidagi tabiat zonalari hududiy xususiyatga ega. Materikning g'arbiy qismida qattiq bargli o'rmonlar va butalar, janubi-sharqida evkalipt o'rmonlari, undan janubda doimiy yashil dub (eman)lar o'sadi".

Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi materikka oid ekanligini toping.

- A) Afrika
- B) Janubiy Amerika
- C) Avstraliya
- D) Shimoliy Amerika

5. Alboran dengizi qaysi okeanda joylashgan?

- A) Tinch
- B) Atlantika
- C) Hind
- D) Shimoliy Muz

6. Matnni o'qing.

Dunyo okeanidagi tirik organizmlarning yarmi shu okeanga to'g'ri keladi. Tridakna nomli eng yirik molluskalarning og'irligi 30 kg ga boradi. Sovuq va mo'tadil mintaqalarda, ayniqsa, janubiy kengliklarda uzunligi 200 m bo'lgan gigant suv o'simliklari o'sadi. **Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi okeanga oid ekanligini aniqlang.**

- A) Hind
- B) Shimoliy Muz
- C) Atlantika
- D) Tinch

7. Kelib chiqishiga ko'ra tektonik bo'Imagan ko'lni toping.

- A) Baykal
- B) Jeneva
- C) Sarez
- D) Issiqko'l

8. Matnni o'qing.

"Cho'llarida chirindisiz qumoq cho'l tuproqlari, pastlik joylarda sho'rxok tuproqlar, vohalarda madaniy tuproqlar shakllangan. O'simligi juda kam, pastlik joylarda sho'ra, shuvoq, saksovul, yulg'un, buta, akatsiya kabi o'simliklar o'sadi".

Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi materikka oid ekanligini toping.

- A) Astraliya
- B) Afrika
- C) Janubiy Amerika
- D) Yevrosiyo

9. Algonkinlar Shimoliy Amerika materigining qaysi qismida istiqomat qiladi?

- A) janubi-sharq
- B) janubi-g'arb
- C) shimoli-g'arb
- D) shimoli-sharq

10. Janubiy Amerika materigiga oid to'g'ri ma'lumotlar berilgan javobni toping.

A) Materikda iqlim sharoiti faqat kenglik bo'ylab o'zgarib qolmasdan, balki g'arbdan sharqqa tomon ham o'zgaradi. Iqlimning bunday o'zgarishiga asosiy sabab, materikning g'arbiy qismi doimo Tinch okeandan keladigan iliq va nam dengiz havo massasi ta'sirida bo'lganlidir.

B) Yil fasllari yog'in miqdoriga qarab farqlanadi. Ekvatorial hududlarda past bosimli mintaqalar, tropik kengliklarda esa yuqori bosimli mintaqalarning tarkib topishi Quyoshning balandligiga bog'liq. Shunga binoan materik ustida ekvatorial, tropik va mo'tadil havo massalari harakatlanadi.

C) O'rmon-dasht va dasht zonalarining kashtan va qora tuproqlarida chalov, betaga, bizon o'ti eng ko'p uchraydi. Zonalarning shimoliy va sharqi qismlarida qalin o'tlarning bo'yi 1,5 m ga yetadi. Asosiy hayvonlari bizon, bo'ri, tulki, kiyik, skuns, opossum, oqboshli burgut va boshqalardan iborat.

D) Savannalar zonasasi subekvatorial iqlim mintaqalari hududidagi pasttekisliklarda, yassi tog'liklarda tarkib topgan. Bu zonada sernam savanna o'rmonlari, quruq savanna, cho'lga aylangan savanna, siyrak o'rmonli savanna va butazorli savanna tabiat komplekslari mavjud.

11. Ustyurt platosining shimoliy qismi nimalardan iborat?

- A) qirlardan
- B) botiqlardan
- C) qumli tekisliklardan
- D) tik jarliklardan

12. Matnni o'qing.

"Okrugning 500 – 1200 m balandliklarida qo'ng'irbosh, bug'doyiq, kakra, bo'tako'z, marmarak, sariqchoy, butalardan do'lana, tog'olcha, achchiq bodom uchraydi. 1200—2500 m balandliklarda har xil o'tlar, bodom, do'lana, zirk, archa, yong'oq, zarang, Tyanshan yeli, qayin, tol, terak, olma, olcha va boshqalar o'sadi".

Matndagi ma'lumotlar qaysi okrugga tegishli ekanligini toping.

- A) Surxondaryo
- B) Farg'ona
- C) Qashqadaryo
- D) Chirchiq-Ohangaron

13. "Daryoning deyarli barcha irmoqlari, asosan, qor va muzliklardan suv oladi. Daryo suvining eng ko'paygan vaqtini iyunda bo'lib, apreldan to avgustgacha unda suv ko'p bo'ladi". Ushbu ta'rif O'rta Osiyodagi qaysi daryoga tegishli?

- A) Sirdaryo
- B) Zarafshon
- C) Ili
- D) Amudaryo

14. "Okrugning ko'p qismi yumshoq lyossimon yotqiziqlardan tashkil topgan. Shu sababli tog'lardan boshlanuvchi soylar, vaqtli suvlar ularni yuvib, jarlarni hosil qilgan. Bundan tashqari, yaylovlardan noto'g'ri foydalanish, o'simliklarga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lish, yerlami noto'g'ri sug'orilishi tufayli shamol va irrigatsiya eroziyalari sodir bo'lmoqda". Ushbu ta'rif qaysi tabiiy geografik okrugga tegishli?

- A) Qashqadaryo
- B) Farg'ona
- C) O'rta Zarafshon
- D) Mirzacho'l

15. Farg'ona tabiiy geografik okrugiga oid ma'lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Okrugning markaziy qismidagi sho'rxok yerlarda pashmak, baliqko'z, seta, sho'ra, yulg'un, qumli yerlarida esa juzg'un, quyonsuyak, saksovul o'sadi. Adirlarda bahorda

rang, qo'ng'irbosh, shaytonkavush o'sadi, ular yozda qurib qoladi, so'ngra oq kavrak, oq shuvoq, qizil burgan, chalov o'sishni davom ettiradi.

B) Okrugning 500 – 1200 m balandliklarida qo'ng'irbosh, bug'doyiq, kakra, bo'tako'z, marmarak, sariqchoy, butalardan do'lana, tog'olcha, achchiq bodom uchraydi. 1200—2500 m balandliklarda har xil o'tlar, bodom, do'lana, zirk, archa, yong'oq, zarang, Tyanshan yeli, qayin, tol, terak, olma, olcha va boshqalar o'sadi.

C) Okrugning 500 metr balandlikkacha bo'lган qismida cho'l mintaqasiga oid o'simliklardan rang, iloq, qo'ng'irbosh, no'xatak, shuningdek, shuvoq va boshqa o'simliklar o'sadi. Yirik daryo qayirlarida to'qay o'simliklari mavjud. Yerosti suvlari yer betiga yaqin bo'lган joylarda sho'ralar o'sadi. Okrugning janubiy qismidagi qumloqlarda juzg'un, qum ilog'i, quyonsuyak kabi o'simliklar uchraydi.

D) Okrug adirlarida shuvoq, burg'un, bug'doyiq, kavrak, oqquray, qo'ziquloq, qurg'oqchil va toshloq yerlarda bir yillik astragal, chiy kabilar o'sadi. 1500—2500 metr balandliklarda o'tlardan bug'doyiq, shuvoq, tipchoq, javdar, shirach, daraxtlardan archa, yong'oq, zarang, qayin, tol, terak, bodom, pista, olcha, do'lana o'sadi.

16. «O'zbekto'qimachilikmash» birlashmasi korxonalari qaysi shaharlarda joylashgan?

- A) Urganch, Buxoro, Namangan
- B) Nukus, Andijon, Samarqand
- C) Toshkent, Qo'qon, Jizzax
- D) Termiz, Chirchiq, Farg'ona

17. "Iqtisodiy rayon 100 dan ortiq uzoq va yaqin xorij mamlakatlari bilan savdo aloqalari olib boradi. Xorijga paxta, ipak, paxtachilik uchun zarur mashina va uskunalar, to'qimachilik mashinalari, kabel, ekskavatorlar, ko'tarma kranlar, elektr energiya, qorako'l terilari, rangli metall konsentratlari, ip va ipak gazlamalar, kanop va kanop mahsulotlari hamda meva jo'natiladi. Rayon ehtiyoji uchun yog'och, neft mahsulotlari, tabiiy gaz, turli xil sanoat mahsulotlari, mashina qismlari, keng iste'mol mollari keltiriladi. Ichki iqtisodiy aloqalarda avtomobil va qisman temiryo'l transportidan foydalilanildi". Ushbu ta'rif mamlakatimizdagi qaysi iqtisodiy rayonga tegishli?

- A) Farg'ona
- B) Janubiy
- C) Toshkent
- D) Zarafshon

18. Germaniyaga tegishli avtomobil konsernini toping.

- A) «Volvo»
- B) «Fiat»
- C) «Folkswagen»
- D) «Reno»

19. Quyidagi qaysi davlat OPEK tashkilotiga a'zo?

- A) Meksika
- B) Suriya
- C) Indoneziya
- D) Angola

20. “Janubi-g'arbiy Osiyoning hududi, aholisi va iqtisodiy salohiyati jihatidan eng yirik davlatlaridan biri. Qirg'oqlari janubda Arabiston dengizi va Fors qo'lting'i, shimoli-g'arbda Kaspiy dengizi suvlari bilan o'ralsan. Iqtisodiy geografik o'rni Janubi-g'arbiy, Janubiy va Markaziy Osiyo davlatlarini bog'laydigan transport yo'llari o'tganligi hisobiga qulay”. Ushbu ta'rif qaysi mamlakatga tegishli?

- A) Turkiya
- B) Saudiya Arabistoni
- C) Eron
- D) Iraq

21. Etna, Vezuviy, Stromboli vulqonlari Yevropaning qaysi subregionida joylashgan?

- A) G'arbiy Yevropa
- B) Janubiy Yevropa
- C) Sharqiy Yevropa
- D) Shimoliy Yevropa

22. Matnni o'qing.

“Mamlakatga subtropik quruq kontinental iqlim xos. Baland tog'lardagi muzliklardan ko'plab daryolar boshlanib, ayrimlari to'laligicha sug'orishga sarflanadi. Hududining katta qismi, ayniqsa, markazi va sharqi baland tog'lar bilan band, shimoliy va janubi-g'arbiy hududlarini tog'oldi tekisliklari egallaydi”.

Matndagi ma'lumotlar qaysi mamlakatga tegishli ekanligini toping.

- A) Afg'oniston
- B) Eron
- C) Pokiston
- D) Turkiya

23. Matnni o'qing.

“Subregion ishlov berilmagan olmos, mis, kobalt, marganes, qalay, neft kabi mineral resurslarning asosiy qismini jahoning turli davlatlariga eksport qiladi. Bundan tashqari, subregion eksportida o'rmon resurslarining

salmog'i ham katta. Suv, biologik resurslariga ham boy bo'lsa-da, mavjud tabiiy resurs imkoniyatlaridan to'lig'icha foydalanimaydi. Asosiy sanoat tarmog'i konchilik sanoati bo'lib, so'nggi yillarda yirik shaharlarda asta-sekinlik bilan qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari ham rivojlanmoqda”. **Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi subregionga oid ekanligini toping.**

- A) G'arbiy Afrika
- B) Janubiy Afrika
- C) Sharqiy Afrika
- D) Markaziy Afrika

24. Pokiston iqlimiga oid to'g'ri ma'lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Iqlimi subtropik bo'lib, dengizga tutash hududlarida sernam va iliq, mamlakatning markaziy va sharqiy hududlarida esa ancha quruq va keskin, ya'ni yozi issiq, qishi ancha sovuq. Relyefi tog'li bo'lganligi tufayli gidroenergetika resurslariga boy.
- B) Mamlakatga subtropik quruq kontinental iqlim xos. Baland tog'lardagi muzliklardan ko'plab daryolar boshlanib, ayrimlari to'laligicha sug'orishga sarflanadi. Hududining katta qismi, ayniqsa, markazi va sharqi baland tog'lar bilan band, shimoliy va janubi-g'arbiy hududlarini tog'oldi tekisliklari egallaydi.
- C) Iqlim shimoli-g'arbiy hududlarida nam subtropik, markaziy va sharqiy hududlarda quruq subtropik. Tog' oralig'idagi botiqlarda iqlim keskin kontinental va o'ta quruq bo'lganligi tufayli o'simlik va hayvonot olamiga juda kambag'al bo'lgan toshloq va sho'rxok cho'llar shakllangan.
- D) Asosiy hududida issiq tropik iqlim hukmronlik qiladi, shuning uchun tekislik qismida cho'l va chalacho'l landshaftlari katta maydonlarda tarqalgan. Simoliy va g'arbiy qismlari baland tog'lar bilan band bo'lsa, sharqiy va janubiy hududlari esa tekislik relyefiga ega.

25. Qaysi guruhdagи landshaftlar, asosan, inson faoliyatining jadal ta'sirida o'zgargan landshaftlardir?

- A) shartli o'zgartirilmagan
- B) kuchsiz o'zgartirilgan
- C) kuchli o'zgartirilgan
- D) madaniy

26. Hindistonning Panjob shtatida qaysi din keng tarqalgan?

- A) islom
- B) induizm
- C) buddizm
- D) sikxizm

27. Amerika qit'asida aholining o'rtacha umr davri qanchani tashkil etadi?

- A) erkaklarda 74 yosh, ayollarda 77 yosh
- B) erkaklarda 76 yosh, ayollarda 80 yosh
- C) erkaklarda 74 yosh, ayollarda 80 yosh
- D) erkaklarda 75 yosh, ayollarda 82 yosh

28. "Shaharga Navoiydan elektr quvvati va Amudaryodan quvur orqali suv olib kelingan. Shahar joylashgan hududning iqlimi keskin kontinental, vaqtiga qo'shiladi, ayrim vaqtarda qum ko'chadi". Ushbu ta'rif qaysi shaharga tegishli?


- A) Xiva
- B) To'rtko'l
- C) Buxoro
- D) Gazli

29. Ushbu yozuv sifatida 1 va 4 raqamlari bilan qaysi oqimlar tasvirlangan?



- A) Janubiy Passat, G'arbiy Shamollar
- B) Gviana, Folkland
- C) Shimoliy Passat, G'arbiy Shamollar
- D) Gviana, Braziliya

30. Yevroсиyo materigining yozuv sifatida Ob va Amur daryolari qaysi raqamlari bilan tasvirlangan?



- A) 1, 4
- B) 2, 4
- C) 2, 3
- D) 1, 3

31. O'rta Osiyoning yozuv sifatida 1 va 4 raqamlari bilan qaysi tizmalar tasvirlangan?



- A) Farg'ona va Pomir
- B) Sarikol va Hindikush
- C) Turkiston va Pyotr Perviy
- D) Oloy va Vaxan

32. Ushbu yozuv sifatida Surxon davlat qo'riqxonasi qaysi raqam bilan tasvirlangan?



- A) 1
B) 2
C) 3
D) 4

33. Okeaniya tarkibidagi orollar jadvalida noto‘g‘ri berilgan qatorlarni toping.

Nº	Melaneziya	Mikroneziya	Polineziya
1	Yangi Gvineya	Valkano	Gavayi
2	Samoa	Bonin	Markiz
3	Yangi Kaledoniya	Ellis	Jamiyat
4	Solomon	Fiji	Tokelau
5	Santa-Krus	Marshall	Pasxa
6	Yangi Gebrit	Gilbert	Nauru

- A) 1, 3, 6
B) 2, 4, 6
C) 1, 3, 5
D) 2, 4, 5

34. Quyidagi jadvalda C harfi o‘rniga qaysi javob to‘g‘ri keladi?

Nº	Davrlar nomi	Davom etgan vaqt
1	Ordovik	60 mln yil
2	C	30 mln yil
3	Devon	70 mln yil
4	Toshko‘mir	55 mln yil


- A) silur
B) perm
C) trias
D) neogen

35. Jahon mamlakatlari va ularning poytaxtlari mos ravishda to‘g‘ri keltirilgan javobni toping.

Nº	Davlat	Variantlar	Poytaxti
1	Gvineya	a	Monroviya
2	Liberiya	b	Fritaun
3	Syerra-Leone	c	Konakri
4	Gambiya	d	Banjul

- A) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b
B) 1-c, 2-a, 3-b, 4-d
C) 1-d, 2-a, 3-c, 4-b
D) 1-b, 2-c, 3-d, 4-a

36. Agar gorizontallar har 200 metrdan o‘tkazilgan bo‘lsa, quyidagi chizmada tasvirlangan relyef shaklini toping.




- A) o‘rtacha tog‘
B) past tog‘
C) o‘rtacha baland tog‘
D) baland tog‘

37. Toshkent shahri (69° sharqiy uzunlik)dan 2562 km sharqda (40° parallellning 1° yoyi 85,4 km ga teng) joylashgan nuqtaning geografik uzunligini toping.

- A) 99° sharqiy uzunlik
B) 54° sharqiy uzunlik
C) 39° sharqiy uzunlik
D) 84° sharqiy uzunlik

38. Quyidagi chizmadan foydalanib, o‘rtacha yillik haroratni aniqlang.




- A) +12,6 °C
B) +13,1 °C
C) +11,8 °C
D) +12,3 °C

39. Agar dengiz sathida havoning me'yoriy bosimi 760 mm Hg ga teng bo'lsa, qaysi cho'qqida havo bosimi 343,5 mm Hg ga teng bo'ladi?
- A) Beluxa
B) Elbert
C) Ras-Dashen
D) Tubkal

40. "Xitoy davlatining sharqiy qismini, Koreya yarimorolini, Yapon orollarini egallaydi. Bu o'lka shimoldan janubga qarab dengiz sohillari bo'ylab bir necha ming kilometrga cho'zilgan". Ushbu ta'rif qaysi tabiy geografik o'lkaga tegishli?
- A) Sharqiy Osiyo
B) Markaziy Osiyo
C) Janubiy Osiyo
D) Janubi-sharqiy Osiyo

41. 2018-yil ma'lumotiga ko'ra ushbu diagrammaning 4-ustunidagi ko'rsatkich qaysi shaharning aholi soniga tegishli ekanligini aniqlang (ming kishi hisobida)?



- A) Andijon
B) Nukus
C) Namangan
D) Termiz

42. "Iqtisodiyoti tez o'sayotgan industrial-agrar davlatdir. Sanoatining yetakchi tarmog'i – yengil sanoat. Ayniqsa to'qimachilik sanoati eksportbop mahsulotni katta hajmda ishlab chiqaradi. Undan tashqari, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, oziq-ovqat, charm sanoati ham rivojlanib bormoqda". Ushbu ta'rif qaysi davlatga tegishli?

- A) Eron
B) Pokiston
C) Turkiya
D) Hindiston

43. O'zbekiston Respublikasida 2019-yil yanvar-dekabr holati bo'yicha tug'ilganlar soni 814 960 kishini, 2020-yil 1-yanvar holati bo'yicha jami aholi soni 33 905,8 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, tug'ilish koefitsiyenti qanchaga teng bo'ladi?
- A) 25 %
B) 24,3 %
C) 23,7 %
D) 24 %

44. Forish tumani aholisining umumiyligi 2020-yil holatiga ko'ra 92,4 ming kishini, urbanizatsiya darajasi 18,6 foizni tashkil qildi. Forish tumanining shahar aholi sonini toping.
- A) 18 324 kishi
B) 17 186 kishi
C) 16 971 kishi
D) 19 245 kishi

45. 1995-yilda Yevropa Ittifoqiga qaysi davlatlar a'zo bo'lган?
- A) Avstriya, Shvetsiya, Finlandiya
B) Polsha, Chexiya, Daniya
C) Norvegiya, Vengriya, Bolgariya
D) Belgiya, Germaniya, Italiya